

G‘OZG‘ON SANOAT KORXONALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Sobirova M.T.

Navoiy Davlat Universiteti o‘qituvchisi

Mustafoyeva Sh.O‘.

Navoiy Davlat Universiteti o‘qituvchisi

Ochilova M.Sh.

Navoiy Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada G‘ozg‘on shahri sanoat korxonalarining faoliyati, ularning tashkil etilishiga ta‘sir etuvchi omillari o‘rganilgan. Shu bilan birga Marmarobod klasterining shakllanishi va rivojlanishi hamda uning faoliyati bayon etilgan. Xususan marmar resursi bilan bog‘liq sanoat rivojlangan.

Kalit so‘zlar. marmar, Marmarobod, G‘ozg‘onmarmar, sanoat, kon, shahar.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ГАЗГАНСКИХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Собирова М.Т.

Преподаватель Навоийского государственного университета

Мустафоева Ш.О.

Преподаватель Навоийского государственного университета

Очилова М.Ш.

Студент Навоийского государственного университета

Аннотация: В статье изучается деятельность промышленных предприятий города Газган и факторы, влияющие на их создание. В то же время описывается формирование и развитие кластера Мармарабад, а также его деятельность. В частности, получила развитие отрасль, связанная с добычей мрамора.

Ключевые слова. мрамор, Мармарабад, Газганмрамар, промышленность, шахта, город.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF GAZGAN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Sobirova M.T.

Teacher of Navoi State University

Mustafoyeva Sh.O.

Abstract: The article studies the activities of industrial enterprises in the city of Guzgan, the factors influencing their establishment. At the same time, the formation and development of the Marmarabad cluster and its activities are described. In particular, the industry related to marble resources has developed.

Keywords: marble, Marmarabad, Gazganmarmar, industry, mine, city.

Respublikada sanoat korxonalarini va ularning ishlab chiqarish samaradorligi bo'yicha Navoiy viloyati eng oldingi o'rinlarni egallaydi. So'nggi yillarda viloyatda sanoat korxonalarini bilan birga eksport hajmi ham oshib bormoqda. Viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning yillik hajmi so'nggi yillarda oshib, 102 069,1 mlrd. so'mga yetdi. Shundan 12 429,3 mlrd tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash turiga to'g'ri keladi. Viloyatdagi tumanlar va shaharlar bo'yicha sanoat hajmi o'zgarib bormoqda. Eng yosh shahar bo'lgan G'ozg'on shahrida ham bu ulush oxirgi yillarda oshib bormoqda. Shahar iqtisodiyoti sanoat, qurilish materiallari sohalariga ixtisoslashgan. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari 13 684,6 ming so'mni tashkil etadi.

G'ozg'on shahrida 40 ga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat yuritmoqda. Hozirgi kunda ular har xil turdagi marmar va granit plitalari ishlab chiqarmoqda. Viloyat jami sanoat ishlab chiqarishining 0,1 foizi ushbu shaharga to'g'ri keladi. Mazkur yo'nalishda hududning katta salohiyatga ega ekanligini inobatga olsak, yangi korxonalar barpo etish, ishlab chiqarish hajmlarini oshirish orqali ish o'rinlari yaratish muhim va dolzarb vazifa sanaladi.

Mazkur shahar sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish ko'ratkichi 109,8 foizga oshgan. Bu yerdagi konlardan qazib olingan 35 xil rangni o'zida aks ettirgan marmar mahsulotlari dunyoning ko'pgina davlatlarida muhtasham binolarga zeb berib turibdi. Eron, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston kabi davlatlarning tarixiy obidalarini restavratsiya qilishda, Moskva va Sankt-

Peterburg shaharlaridagi metro bekatlari, vokzallar, Ostankino teleminorasi, Kiyevdagi "Ukraina" saroyi, Bakudagi 26-Baku komissari yodgorligi, Novosibirskdagi sirk binosi, Bishkekda drama teatri, Moskvadagi Tretyakov galereyasi qurilishida G'ozg'on marmari ishlatilgan.

Mamlakatimizdagi muzeylar, Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri, O'zbekiston mehmonxonasi, ko'plab mehmonxonalar, saroy, muzey va boshqa obyektlarning bezak ishlarida G'ozg'on marmaridan foydalanilgan. Hozirgi kunda shaharda xorijiy korxonalar ham faoliyat olib boradi. Bular asosan 9 ta xorijiy korxonalar bo'lib, ulardan 4 tasi Xitoy, 2 tasi Hindiston, 1 tasi Rossiya, 1 tasi Afg'oniston va 1 ta Avstriya davlatlari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Marmar konida qatlam bo'yicha tik va diagonal darzliklar sistemasi mavjud. Uni arralash tabiiy qatlamlar bo'ylab amalga oshiriladi. Chiqindisidan marmar maydasi, quyma tosh va qum ishlab chiqariladi. G'ozg'on marmari nisbatan mo'rt, yaxshi silliqlanadi, oynasimon aks beradi, yuqori darajada dekorativ bo'lganligi tufayli juda ko'p sohalarda foydalanilmoqda. Bu turdagi toshlar uchun esa hozirgi kunda talab juda katta.

2019-yil Respublika Prezidentining tashrifi natijasida G'ozg'on shahar uchun ko'plab imkoniyatlarni yaratdi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan barcha kichik korxonalarni bir joyda birlashtirilib, shaharda sanoat klasterini tashkil etish yo'lga qo'yila boshlandi. Chunki shaharda sanoat klasterlari tuzilsa resursni qazib olishdan to tayyor mahsulot holatiga keltirishgacha bo'lgan jarayonlarni bitta yagona majmuaga birlashtirgan bo'lamiz. Bu esa nisbatan tannarxning arzonroq tushishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Bugungi kunda G'ozg'on shahrida ko'plab korxonalar faoliyat yuritmoqda. Eng yirik mahsulot hajmiga ega bo'lgan "Marmarobod" klasteri va "G'ozg'onmarmar" AJ korxonalardan iborat.

Klasterlash - bu bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga o'zaro yordam beradigan bir-biriga yaqin bo'lgan firmalar va tarmoqlarning birlashmalarini shakllantirish jarayoni. Mamlakatning butun iqtisodiyoti uchun klasterlar ichki

bozor uchun o‘shish nuqtalari va xalqaro iqtisodiyotning asosi rolini o‘ynaydi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligini tashkil etishning klaster shakli ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun tarmoqlar o‘rtasidagi muhim aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Bu milliy iqtisodiyotning tarkibiy masalasiga mutlaqo yangi yondashuv bo‘lib, u raqobatbardosh mahsulotni yaratishni (yangi g‘oyalarni yaratishga qodir kadrlarni tayyorlashdan, yuqori sifatli butlovchi qismlar va xom ashyolarni tayyorlash yoki sotib olishdan, yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish va sotishdan) tizimli ravishda boshqarish imkonini beradi. Jahon davlatlarining o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishdagi asosiy maqsadi o‘z milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini hamda jahon bozoridagi ulushini oshirishdan iborat.

“Marmarobod” klasteri G‘ozg‘on shahrida Prezident tashabbusi bilan 2020-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u marmar sohasida yetakchi korxonalar hisoblanib, tabiiy marmar va granit toshlarni qazib olish va qayta ishlashni yo‘lga qo‘ygan Markaziy Osiyodagi eng yirik klaster sanaladi. Ushbu klaster marmar qazib olish, qayta ishlash va eksport qilish bilan shug‘ullanadi. Korxonada zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilib, sifatli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Klasterga xorijiy investorlar jalb qilinib, keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Klaster hududida 11 ming kv.m zamonaviy ishlab chiqarish binosi qurilgan. Xitoy va Italiyadan keltirilgan ilg‘or uskunalar yillik 70 ming kub tosh qazib olish va 800 ming kv.m toshni qayta ishlash imkonini beradi. Ushbu klaster hududda yirik sanoat va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Klaster doirasida yuqori malakali mutaxassislar ishlaydi va samaradorlikni oshirish uchun yangi ishlab chiqarish uskunalari kiritilmoqda. Klaster hududida 400 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich kelajakda 800 taga yetkaziladi. Mahalliy tadbirkorlar uchun maxsus ishlab chiqarish binolari, bank xizmatlari markazi, o‘quv markazi va servis do‘konlari tashkil etilgan. Klaster mahsulotlari ichki bozorda talabgir bo‘lib, Tojikiston, Qozog‘iston, Rossiya, Ozarbayjon kabi davlatlarga eksport qilinmoqda. Toshkentdagi “O‘rikzor” bozori hududida mahsulotlarni ko‘rgazma zali ochilgan. Klasterning faoliyati G‘ozg‘onning

iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirib, mahalliy aholi uchun bandlik imkoniyatlarini oshirgan. Shahar infratuzilmasi, jumladan, yo‘llar va xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari rivojlantirilmoqda.



1-rasm. Marmarobod klasteri faoliyatidan lavhalar

Keyingi korxonada esa “G‘ozg‘onmarmar” AJ bo‘lib, bu korxonada 1969-yilda tashkil topgan. O‘zbekistonning eng yirik marmar konlaridan biri - G‘ozg‘on marmar koni asosida faoliyat yuritadi. “G‘ozg‘onmarmar” AJ marmardan qurilishda ishlatiladigan qoplama-pardoqlash plitalari ishlab chiqaradigan yirik korxonada sanaladi. Korxonada yuqori sifatli marmar mahsulotlarini ishlab chiqaradi va ularni mahalliy hamda xalqaro bozorlarga yetkazib beradi. G‘ozg‘onmarmar AJ O‘zbekistondagi eng yirik marmar ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Uning mahsulotlari qurilish va bezak ishlari uchun keng qo‘llaniladi. Kompaniya zamonaviy texnologiyalar va uskunalardan foydalanib, yuqori sifatli marmar plitalar, plitkalar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Kompaniya sifat nazorati tizimi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasi bilan ajralib turadi. U xalqaro sifat standartlariga muvofiq ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etgan. Shuningdek, ekologik mas‘uliyatni hisobga olgan holda, atrof-muhitni muhofaza qilishga alohida e‘tibor qaratadi.

“G‘ozg‘onmarmar” AJ hozirgi kunda «O‘zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kirgan.

G‘ozg‘onmarmar korxonasining mahsulotlari nafaqat O‘zbekiston bozorida, balki, xalqaro bozorlarda ham talabga ega. Kompaniya eksport faoliyatini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratib, o‘z mahsulotlarini turli mamlakatlarga yetkazib beradi.



2-rasm. G'ozg'on marmar AJ faoliyatidan lavhalar

G'ozg'on marmari juda xilma-xil rangli ko'rinishga ega. Marmar mahsulotlari Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg kabi yirik shaharlar me'moriy inshootlarida, shuningdek, Rossiya, Afg'oniston va Qozog'istonga eksportda qo'llaniladi. Shuningdek, asosiy harakat zamonaviy texnologiyalar yordamida mahsulot sifatini oshirish va eksport hajmini kengaytirishga qaratilgan. Korxonada faoliyati davomida hududda yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu esa shahar aholisini ish bilan ta'minlanish darajasini oshirmoqda. Kompaniya sifat nazorati tizimi va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi bilan ajralib turadi. U xalqaro sifat standartlariga muvofiq ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etgan. Shuningdek, ekologik mas'uliyatni hisobga olgan holda, atrof-muhitni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratadi.

Xulosa qilib aytilganda, G'ozg'on shahrida tabiiy resursning mavjudligi, sanoat klasterining tarkib topishiga xizmat qiladi. Bu esa shahar sanoatining rivojlanishi va kengayishiga olib keladi. Shuningdek, sanoat klasterining rivojlanishi aholi turmush darajasining oshishiga hamda ijtimoiy sohalarning kengayishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, 60-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining "Navoiy viloyati Nurota tumani G'ozg'on shaharchasini G'ozg'on shahri etib

- o'zgartirish, G'ozg'on shahrini viloyat buysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish hamda Navoiy viloyati Nurota tumani chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi Qarori 2019-yil 2-may, 2491-III-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019-2021 yillarda Navoiy viloyatining G'ozg'on shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 22-iyul, 611-son.
 4. Aslanov O. "G'ozg'on shahri: kecha va bugun".-T.: Sakhof. 2021.
 5. Ismoilov M.I. va Balakina A.S. "O'zbekiston marmari" –T.
 6. Латипов, Н. Ф. (2018). International migration tours and works. Наука и мир, (8), 108-110.
 7. Latipov, N. (2022). НАВОЙЙ ВИЛОЯТИДА АХ. ОЛИ САЛОМАТЛИГИГА ЭКОЛОГИЯНИНГ ТАЪСИРИ.
 8. Latipov, N. F. (2024). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS CORRELATION WITH THE ECOLOGICAL CIRCUMSTANCE. Science and innovation, 3(Special Issue 4), 343-352.
 9. LATIPOV, N. (2024). THE ESTABLISHMENT AND STRUCTURE OF THE CITIES OF THE NAVOI REGION. News of the NUUZ, 3(3.1. 1), 237-240.
 10. Khudoyberdieva, I. Analyzing of Influential Factors for the Development of Livestock and their Significance in Navoi Region.
 11. Mukhammedova, N. J., & Talabbojeva, M. (2024). NAVOIY VILOYATI SANOATI. New article, 1(1), 64-66.
 12. Komilova, N., Mukhammedova, N., Ermatova, N., Ibragimova, Z., & Bafoeva, S. (2023). Pandemics and their geographical distribution. EMERGENCY MEDICINE, 19(6), 386-392.
 13. Shodmonovich, N. S. (2024). DYNAMICS OF POPULATION AND LABOUR RESOURCES OF NAVOI REGION, THEIR LOCATION CHARACTERISTICS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(06), 221-235.

14. www.navstat.uz

15. www.gozgon.uz